

Tulyaganov Dilshat Ubaydullaevich – Kimyo fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi etib tasdiqlandi

*Yangi O'zbekistonning 2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasini “**Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili**”da amalga oshirishga oid davlat dasturining 173-bandiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tashkil topganligining 80 yillicini keng nishonlash, mamlakatimiz ilm-fani nufuzini yanada oshirish, ilmiy-texnologik salohiyatini yuksaltirishda akademik ilm-fanning rolini kuchaytirish maqsadida hamda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Hay'ati va tegishli fan ixtisosliklari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan haqiqiy a'zolarining tavsiyasiga asosan, **Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti Tabiiy-matematik fanlar kafedrasini mudiri Tulyaganov Dilshat Ubaydullaevich – Kimyo fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi etib tasdiqlandi.**

Ustozni ushbu yutuqlari bilan chin qalbimizdan muborakbod etamiz! ilm-fan rivoji yo'lida olib borayotgan fidokorona faoliyatlarida yangi yutuq va omadlar tilab qolamiz!